O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02-RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SHARIPOVA YOKUT QUDRATILLAYEVNA

INGLIZ TILINI O‘QITISH BO‘YICHA YANGI AVLOD ADABIYOTLARINI YARATISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI (KO‘RISH IMKONIYATI CHEKLANGANLAR MISOLIDA)

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

UDK: 378.016:811.111

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Sharipova Yokut Qudratillayevna
Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini yaratishning ilmiy-metodik asoslari (ko‘rish imkoniyati cheklanganlar misolida)…….…….....3

Шарипова Екут Кудратиллаевна
Научно-методические основы создания нового поколения учебной литературы по обучению английскому языку (на примере лиц с ограниченными возможностями зрения).……22

Sharipova Yokut Qudratillayevna
Scientific and methodological foundations for creating a new generation of educational literature for teaching English (using the example of visually impaired individuals).……43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....52

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02-RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SHARIPOVA YOKUT QUDRATILLAYEVNA

INGLIZ TILINI O‘QITISH BO‘YICHA YANGI AVLOD ADABIYOTLARINI YARATISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI
(ko‘rish imkoniyati cheklanganlar misolida)

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti veb-sayti (www.uzswlu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Isakulova Nilufar Janikulovna**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Jumanazarov Umid Umirzakovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Axmedova Nodiraxon Muxtorjonovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Guliston Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «___»_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» _____ kuni tarqatildi

(2026-yil «____» _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I.M.Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

F.G.Zakirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.B.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida inklyuziv ta’limni tizimli rivojlantirish jarayonida ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim muhitini yaratish hamda ularning fiziologik va kognitiv ehtiyojlariga mos o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammo bo‘lib bormoqda. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida ta’lim olish huquqiga ega bo‘lib, mazkur huquqni ta’minlash maxsus pedagogik shart-sharoitlar va moslashtirilgan ta’lim resurslarini talab etmoqda. Shu bois, ingliz tilini o‘qitishda ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ehtiyojlariga mos o‘quv materiallarini yaratish zarurati ortib bormoqda. Bugungi kunda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan ingliz tili o‘quv adabiyotlarining muayyan qismi ularning fiziologik hamda kognitiv xususiyatlarini yetarli darajada inobatga olmagan holda ishlab chiqilmoqda. Natijada, ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish, ularni mustaqil o‘qishga yo‘naltirish va o‘zlashtirish jarayonini individuallashtirish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Mazkur holat ingliz tilini o‘qitish uchun maxsus moslashtirilgan, amaliy jihatdan samarali va metodik jihatdan asoslangan yangi turdagi o‘quv adabiyotlarini yaratishni taqozo etadi.

Jahon ta’lim amaliyotida, xususan AQSH, Buyuk Britaniya hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun o‘quv adabiyotlarini yaratishda Ta’limning universal dizayni tamoyillari va tayanch texnologiyalar yondashuvlari muhim metodik asos sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuvlar o‘quv materiallarini bir vaqtning o‘zida bir nechta idrok kanallari orqali o‘zlashtirishga imkon yaratib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shundan kelib chiqib, ilg‘or xalqaro tajribalarni ingliz tilini o‘qitish metodikasiga moslashtirish hamda milliy darsliklar tizimiga joriy etish ilmiy-metodik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish va ko‘zi ojiz va ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim olish huquqini ta’minlash borasida qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan va amaliy sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlarning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim jarayoniga jalb qilish, ular uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish va jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida rivojlanishlariga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib bo‘lmoqda. Bunda “ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning ta’lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko‘maklashish hamda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish” kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan[1]. Ushbu qonunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga oid umumiy qoidalar belgilangan bo‘lib, ularning ta’lim olish huquqini kafolatlaydi va bu huquqni amalga oshirish uchun davlat organlari va ta’lim muassasalarining majburiyatlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-209-son qarori. https://president.uz/oz/lists/view/5131.

shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son va 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son va 2022-yil 18-apreldagi “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-209-son Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi[2].

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ingliz tilini o‘qitishda yangi avlod adabiyotlarini yaratish bo‘yicha J. Jalolov, I.Tuxtasinov, T. Sattarov, G. Mahkamova, I.Asrorov, G.Karimova va N.Isakulovalarning tadqiqot ishlari o‘rganildi[3].

MDH davlatlari olimlaridan I.Bim, L.Vigotskiy, N.Galskova, N.Gez, Yu. Shumilovskaya, I.Xafizullina va A.Litvaklar xorijiy tillarni o‘qitishning amaliy metodikasini ishlab chiqqan[4].

---

[2] https://lex.uz/docs/-5044711; https://lex.uz/uz/docs/-5679836; https://lex.uz/docs/-5966089 ; https://lex.uz/uz/docs/-6008663; https://lex.uz/uz/docs/-5426736

[3] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 432 b; Tuxtasinov.I.M. Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy metodlar va texnologiyalar. - Toshkent: O‘qituvchi, 2020. - 220 b.; Sattorov T.Q. Pedagogik texnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etish. - Toshkent: Innovatsiya, 2019. - 200 b.; Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. Ingliz tili o‘rgatish texnologiyasi: o‘quv-metodik qo‘llanma. - Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2010. - 93 b.; Asrorov I., Abdullaeva G. Measures to Find Out Learning Disabilities and Improve the Condition for LD Children // Innovatsionnie podxodi v sovremennoy nauke. - 2020. - B. 13-17.; Karimova G. Yangi avlod darsliklari yaratishda zamonaviy yondashuvlar // O‘zbekiston maktabi. - 2021. - No.1.- B. 34-38.; Isakulova N.J. Ta’lim amaliyotida o‘quv materialini moslashtirish va modifikasiyalash // O‘DJTU konferensiyalari. - 2025. - B. 16-22. Isakulova N.J. Interdisciplinary Nature of the Methodology for Organizing Inclusive Education // European International Journal of Pedagogics. - 2025. - Vol. 5, No.6.

[4] Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. - Москва: Русский язык, 1977. - 288 с.; Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: HUP, 1978. - 159 p.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. - Москва: Академия, 2004. - 336 с.; Шумиловская Ю.В. Подготовка будущего учителя к работе с учащимися в условиях инклюзивного образования: дис. канд. пед. наук. - Шуя, 2011. -313с.; Хафизуллина И.Н. Формирование инклюзивной компетентности будущих учителей в процессе

Xorijiy olimlardan S.Basharan, N.Basha, B.Tomlinson, H.Brown, H.Gardner, S.Krashen, M.Frend, M.Pérez-Pereira, M.McLinden, A.Meyer, D.Rose, D.Coyle, P. Nation, J. Richards va W.Bursuck maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim jarayonida harakatining aniq-amaliy yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqqan[5].

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ingliz tilini o'qitishda yangi avlod adabiyotlarini yaratish masalasi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yangi avlod adabiyotlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadigan, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradigan va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ingliz tilini o'qitishda yangi avlod adabiyotlarini yaratishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun o'qitish metodikasini takomillashtirish;

O'zbekiston muhitida ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun unifikatsiyalashgan Brayl yozuvining dizaynini o'rganish;

ta'limni universal dizayn shaklidagi tasavvurga asoslangan kontent mazmunini takomillashtirish;

ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus moslahtirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ko'rish imkoniyati cheklangan 5-6-sinf o'quvchilari uchun ingliz tilini o'qitishda yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ulardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslash jarayoni belgilandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi

---

профессиональной подготовки: дис. канд. пед. наук. - Астрахань, 2008. - 212 с. ;Литвак А.Г. Психология слепых и слабовидящих. - Санкт-Петербург: КАРО, 2006. - 336 с.

[5] Basaran S. Teaching English to VI Students in Turkey // Energy Education Science and Technology Part B. - 2012. - Vol. 2. - P. 217-226.; Bacha N. A Blind Learning EFL Mainstream Courses // In: Tomlinson B. (ed.) Language Acquisition. - London: Continuum, 2007. - P. 267-281.; Tomlinson B. (ed.). Developing Materials for Language Teaching. 2nd ed. - London: Bloomsbury, 2013. - 526 p.; Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. 6th ed. - Pearson Education, 2014.; Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. 3rd ed. - New York: Basic Books, 2011. - 467 p.; Krashen S.D. Explorations in Language Acquisition and Use: The Taipei Lectures. - Portsmouth, NH: Heinemann, 2003. - 200 p.; Friend M., Bursuck W.D. Including Students with Special Needs. 8th ed. - New York: Pearson, 2018; Perez-Pereira M., Conti-Ramsden G. Language Development and Social Interaction in the Blind Child. – Hove: Psychology Press, 2013; McLinden M., Douglas G. Education of Children with Sensory Needs // In: Peer L., Reid G. (eds.) SEN. - London: Sage, 2014. - P. 147-162.; Meyer A., Rose D.H., Gordon D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. - Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2014.; Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010; Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. 3rd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2022.; Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchi-bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning 5- 6-sinf oʻquvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini koʻrish imkoni cheklangan oʻquvchilar uchun ingliz tilini oʻqitishda yangi avlod adabiyotlarini yaratish mazmuni, shakli va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, soʻrovnoma, suhbat, intervyu, test sinovlari, tajriba-sinov ishlari hamda natijalarni statistik tahlil qilish kabi tadqiqot usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchilar uchun oʻqitish metodikasi inklyuziyada ma'lumotni qabul qilish imkoniyati, kompensatorlik, multisensorlik, individuallashtirish va bosqichma-bosqichlik tamoyillari boʻyicha takomillashtirilgan;

Oʻzbekiston muhitida koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchilar uchun Brayl yozuvining Universal dizayni oʻrganish yollari, texnologiyasi, interfaolligi, topshiriqlar tizimi boʻyicha mos kelishi isbotlangan;

ta'limni universal dizayni shaklidagi tasavvurga asoslangan kontent mazmuni maxsus maktab, inklyuziv, moslashuvchan individual ta'lim marshrutlari boʻyicha tiflotexnikasi takomillashtirilgan;

koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchilar tasavvurini boyitish orqali leksika, grammatika, talaffuz hamda tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish koʻnikmalarini rivojlantiruvchi maxsus moslashtirilgan mashqlar tizimi ingliz tilida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

koʻrish imkoniyati cheklangan 5-6-sinf oʻquvchilar uchun ingliz tilini oʻqitishda Brayl alifbosi yordamida yaratilgan oʻquv materiallarining samaradorligi aniqlangan;

koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchilarning til koʻnikmalarini shakllantirish mezon va koʻrsatkichlari aniqlangan;

koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchilar uchun ingliz tilini oʻqitishda Brayl alifbosi yordamida yaratilgan Light Up oʻquv-metodik majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi koʻrish imkoniyati cheklangan oʻquvchilar uchun ingliz tilini oʻqitishda yangi avlod oʻquv materiallarini yaratish kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va xorijlik olimlar, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, oʻzaro bir-birini toʻldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qoʻllanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan toʻplangan materiallar, olingan natija va xulosalar, taklif va tavsiyalar chet tili oʻqitishning nazariy-amaliy bilimlarini boyitish, yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, ingliz tilini oʻqitish-

o‘rgatish bo‘yicha ta’lim mexanizmini takomillashtirish, o‘quv qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ta’limning universal dizayni shaklidagi tasavvurga asoslangan kontent mazmuni, maxsus moslashtirilgan mashqlar tizimi hamda “Light Up” o‘quv-metodik majmuasi foydalanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘rish imkoniyati cheklanganlar uchun ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini yaratishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

inklyuziyada ma’lumotni qabul qilish imkoniyati, kompensatorlik, multisensorlik, individuallashtirish va bosqichma-bosqichlik tamoyillari bo‘yicha takomillashtirilgan xulosa va takliflardan Britaniya kengashining “Inklyuziv universitet” loyihasi doirasida foydalanilgan (Britaniya kengashining 2026-yil 7-oktabrdagi OC-33-65-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rish imkoniyati cheklangan 5–6-sinf o‘quvchilari uchun ingliz tili darslarini inklyuziv ta’lim tamoyillari, audial-taktil idrok va individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

O‘zbekiston muhitida ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun Brayl yozuvining universal dizayni o‘rganish yo‘llari, texnologiyasi, interfaolligi, topshiriqlar tizimi bo‘yicha mos kelishi isbotlangan xulosa va takliflardan Britaniya kengashining “Inklyuziv universitet” loyihasi doirasida foydalanilgan (Britaniya kengashining 2026-yil 7-oktabrdagi OC-33-65-son ma’lumotnomasi). Natijada, Brayl yozuvi, audiomateriallar, taktil idrok va og‘zaki nutq faoliyatiga moslashtirilgan maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga joriy etilgan;

ta’limning universal dizayni shaklidagi tasavvurga asoslangan kontent mazmuni maxsus maktab, inklyuziv, moslashuvchan individual ta’lim marshrutlari bo‘yicha tiflotexnikasi takomillashtirilgan xulosa va takliflardan “Sociolinguistics” o‘quv qo‘llanmasini Brayl formatida yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 1-apreldagi 132-sonli buyrug‘i, №132/3-raqamli guvohnoma). Natijada, darslik mazmuni vizual axborotni audio tavsif, taktil idrok, Brayl yozuvi va ekranni o‘qishga mos topshiriqlar orqali o‘zlashtirishga yo‘naltirilib, individual ta’lim ehtiyojlariga mos o‘quv marshruti bilan boyitilgan;

ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar tasavvurini boyitish orqali leksika, grammatika, talaffuz hamda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus moslashtirilgan mashqlar tizimi ingliz tilida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan “Sociolinguistics” o‘quv qo‘llanmasini Brayl formatida yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 1-apreldagi 132-sonli buyrug‘i, №132/3-raqamli guvohnoma). Natijada, o‘quv materiali navigatsion ko‘rsatmalar, interfaol topshiriqlar va universal ta’lim dizayni tamoyillari asosida Brayl formatiga moslashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta, jumladan, 1

ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda) chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, asosiy matni 147 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini yaratishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy ta’lim tizimida yangi avlod adabiyotlarining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bobda ingliz tilini o‘qitishda yangi avlod adabiyotlarini yaratishning ilmiy-nazariy asoslari, ularning an’anaviy darsliklardan farqlari, afzalliklari va kamchiliklari chuqur tahlil qilingan. Bobda “yangi avlod o‘quv adabiyoti”, “darslik” va “o‘quv-metodik majmua” tushunchalarining o‘zaro nisbati aniqlashtirildi: darslik deganda o‘quvchi kitobi, o‘quv-metodik majmua deganda esa darslik, ish kitobi, o‘qituvchi kitobi hamda audio va taktil materiallardan iborat to‘plam tushuniladi. Shuningdek, yangi avlod adabiyotlarining ta’lim jarayoniga qanday ta’sir o‘tkazishi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qanday yaxshilashi va ularning zamonaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli ko‘rib chiqilgan.

Yangi avlod adabiyotlarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning an’anaviy darsliklardan farqi, ingliz tilini o‘qitishda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos jihatlari hamda ularni yaratish va amaliyotga tatbiq etishdagi afzallik va cheklovlari mamlakatimizda J.Jalolov, I.Tuxtasinov, M.A.Ismoilova va G.Karimovaning, MDH davlatlarida esa N.Galskova, N.Gez va Y.Solovovaning, xorijda B.Tomlinson, I.Makgrat, J.Richards va T.Rodjersning tadqiqotlarida tahlil qilingan[6].

Yangi avlod darsliklari va an’anaviy darsliklarning qiyosiy tahlili ularning farqli jihatlarini, xususan, kommunikativ yondashuv, interaktivlik, multimedia

[6] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 432 b.; Tuxtasinov I.M. Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy metodlar va texnologiyalar. - Toshkent: O‘qituvchi, 2020. - 220 b.; Ismoilova M.A. Yangi avlod darsliklari yaratishning ilmiy-metodik asoslari // Pedagogik mahorat. - 2020. - №4(1). - B. 71-75.; Karimova G. Yangi avlod darsliklari yaratishda zamonaviy yondashuvlar // O‘zbekiston maktabi. - 2021. - №1. - B. 34-38.; Tomlinson B. (ed.) Developing Materials for Language Teaching. 2nd ed. - London: Bloomsbury, 2013. - 576 p.; McGrath I. Materials Evaluation and Design for Language Teaching. 2nd ed. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2016. - 336 p.; Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2014.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. - Москва: Академия, 2004. - 336 с.; Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: Базовый курс лекций. - Москва: Просвещение, 2002. - 239

vositalaridan foydalanish va shaxsiylashtirilgan ta’limga qaratilganligini ko‘rsatadi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Yangi avlod va an’anaviy darsliklarning qiyosiy tahlili

Xususiyatlar	Ana’naviy darsliklar	Yangi avlod darsliklari
Maqsad	Bilmini ma’lumotlani yodlatish orqali berish	Bilimni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish orqali berish, tilni kommunikatsiyada samarali qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish
Yondashuv	O’qituvchi markazida yondashish	O’quvchi markazida yondashish
Mazmun	Til aspektlari, grammatika, leksika va talaffuzga asosiy e’tibor qaratish.	Tilni turli vaziyatlarda samarali qo’llashga qaratilingan kommunikativ mashqlar va topshiriqlarga boyitish
Dizayn	Oddiy, asosan strukturani tushuntirishga qaratilingan jadballar bilan boyitish	Turli idrok kanllariga mos rasmlar, audio mashqlar, taktil va Brayl yozuvi qoidalariga moslashtirish
Texnologiya	An’anaviy-darslik, daftar va doska	Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish; interfaol mashqlar, audio va video materiallar, online lug’atlar va boshqa resurslar bilan boyitish

Yangi avlod darsliklari ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv bo‘lib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yangi avlod darsliklari tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yangi avlod darsliklari interaktiv elementlar, multimedia vositalari va onlayn resurslardan keng foydalanish orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etadi. Biroq, yangi avlod darsliklarini qo‘llashda texnik imkoniyatlar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va moliyaviy resurslar yetishmasligi kabi muammolar mavjud.

Yangi avlod darsliklarining ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati va ularni yaratish va qo‘llash jarayonidagi muammolar aniqlandi:

inklyuziv metodika bo‘yicha yetarli ilmiy tadqiqotlarning kamligi;

assistiv texnologiyalar bilan mos kelmaydigan elektron resurslar;

inklyuziv ta’lim bo‘yicha malaka oshirish kurslarining cheklanganligi;

Brayl va audio manbalarni nashr etish xarajatlarining yuqoriligi;

baholash mezonlarining moslashtirilmaganligi.

Yangi avlod darsliklari o‘quvchilarni zamonaviy talablarga mos bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ularni muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun o‘qituvchilarning tayyorgarligini oshirish, texnik imkoniyatlarni yaxshilash va milliy qadriyatlarga mos materiallar yaratish zarur.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun “Light Up” o‘quv-metodik majmuasi inklyuziya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Ushbu darslik o‘quvchilarning o‘qish, tinglab tushunish, yozish va og'zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, Brayl yozuvi, audio materiallar va taktil

topshiriqlar orqali sensorli idrokni faollashtiradi. Darslik bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus tayyorlangan bo‘lib, o‘quvchilarda ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishni oshirish va o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini yaratishning metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish muammolari, o‘qituvchi kitobi mazmuni va talablari, o‘quvchi va ish kitoblarining mazmuni va talablari, shuningdek, ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun ingliz tilida mashqlar tizimi yoritilgan. Bobda ikki baholash tizimi o‘quv-metodik majmuaning inklyuzivlik darajasini baholashning besh mezoni hamda o‘quvchilar natijasini baholovchi to‘rt mezonli rubrika alohida ishlab chiqilgan.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchi ingliz tilini o‘rganishda vizual tayanchdan ya’ni rasm, rang, shakl va grafik sxemalardan foydalana olmaydi; uning uchun tinglab tushunish, taktil idrok va tavsif asosiy o‘zlashtirish kanallari hisoblanadi. Shu sababli umumta’lim maktablari uchun yaratilgan darslikning mashqlar tizimi bunday o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmaydi. Bob davomida hozirgi kunda maktablarda foydalanilayotgan “Guess What! 5” [7] va uning asosida Brayl nashrga moslab yaratilgan “Light Up 5”[8] mashqlar tizimi har bir ko‘nikma kesimida qiyoslanib, moslashtirish qanday metodik yechimlar orqali amalga oshirilgani ko‘rsatib beriladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

“Guess What” va “Light Up” darsliklari mashqlar tizimining qiyosiy tahlili

Mashqlar turi	**“Guess What! 5”**	**“Light Up 5”**
Tinglab tushunish mashqlari	Audio matn rasm va videoga tayanadi: Listen and look, Listen and match	Audio matn tasavvurga tayanadi: dialogni tinglash, imlo diktanti, qo‘shiq
Leksik mashqlar	Yangi so‘z rasm ostidagi yozuv bilan beriladi: Look and write the words	Real predmet (realia), audio tavsif, Brayl kartochka va semantik guruhlash
Grammatik mashqlari	Rangli “Focus!” bloki va rasmli vaziyat	Audio-dialog, bo‘sh joyni to‘ldirish, Brayl kartochkalardan gap terish
Talaffuz mashqlari	Alohida bo‘lim ajratilmagan, imitatsiya bilan cheklanadi	Ritmik-musiqiy mashqlar, minimal juftliklar, artikulyatsion ishora
O‘qish mashqlari	Matn rasm, sxema va yorliqlar bilan birga beriladi	Qisqartirilmagan Brayl matni, audio tayanch, qiyosiy matnlar
Yozish va gapirish mashqlari	Rasmli vaziyat asosida gapirish, daftarga yozish	Audio diktant, ekran o‘qigich orqali terish, og‘zaki ssenariy

Jadvaldan ko‘rinadiki, moslashtirish mashqning maqsadini emas, balki axborot kanalini o‘zgartirish kerak. Bu tamoyil L.S.Vigotskiyning kompensatsiya nazariyasiga borib taqaladi: ko‘rish tayanchining yo‘qligi tinglab-tushunish xotirasi,

[7] Reed S., Bentley K. Guess What! Level 5 Pupil’s Book - Cambridge: Cambridge University Press, 2015. - 104 p.
[8] Sharipova Y.Q. va boshq. Light Up. Level 5: Pupil’s Book (Brayl nashri) - Toshkent: O‘zDJTU, 2018. - 152 b.

taktil sezgirlik va verbal tasavvurning kuchayishi bilan qoplanadi[9]. Quyida har bir ko‘nikma bo‘yicha ikkala darslikdan olingan aniq namunalar qiyoslanadi.

Tinglab tushunish. “Guess What! 5” da audio material doimo vizual tayanch bilan birga keladi: o‘quvchi bayroqlar tasvirini ko‘rib turib tinglaydi va mosini topadi (Listen and look, Listen and repeat, then match). “Light Up 5” da esa xuddi shu didaktik vazifa sof audio dialog orqali hal etiladi-o‘quvchi Bob va Akmalning suhbatini tinglaydi, takrorlaydi, so‘ng juftlikda zanjir tuzib mashq qiladi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Tinglab tushunish mashqlaridan namuna

Farq shundaki, umumta’lim darsligida tinglash ko‘rish bilan tasdiqlanadi, Brayl nashrida esa tinglash o‘zi yagona kirish kanali bo‘lib qoladi. Shuning uchun “Light Up 5” da matn hajmi qisqartirilgan, sur’at sekinlashtirilgan va audio pauzalar qo‘shilgan. Imlo diktanti esa ikki vazifani bir vaqtda bajaradi: Brayl yozuv ko‘nikmasini mustahkamlaydi va yangi so‘zning o‘zlashtirilganini tekshiradi; umumta’lim darsligida bunday mashq uchramaydi, chunki ko‘zi ojiz bo‘lmagan o‘quvchi so‘zni ko‘rinishi orqali ham eslab qoladi.

Leksika. Farq eng yaqqol shu ko‘nikmada namoyon bo‘ladi. “Guess What! 5” ning “Under the ocean” bo‘limida o‘quvchi besh dengiz jonivorining suratiga qarab nomini yozadi va tavsifga ko‘ra rasmni topadi - semantizatsiya butunlay ko‘rish orqali kechadi. “Light Up 5” ning 10-darsida esa xuddi shu maqsad hayvon tovushlarini tinglab nomlash, so‘ng ularni “farm animals-pets-zoo animals” toifalariga ajratish orqali amalga oshiriladi (3-rasmga qarang).

Semantik guruhlashni tanlashda P.Neyshnning leksikani qayta ishlash haqidagi qarashiga tayanildi. Unga ko‘ra, so‘z uzoq muddatli xotirada saqlanishi uchun ongda bir necha bosqichli ishlovdan o‘tishi lozim. Ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchida bu ishlov aynan toifalash orqali amalga oshadi. Vizual semantizatsiyaning to‘liq muqobili sifatida “sirli xalta” mashqi ishlab chiqildi. O‘qituvchi matodan tikilgan xaltaga mavzuga oid 6-10 ta predmet joylaydi: mevalar

[9] Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: HUP, 1978. - 159 p

mavzusida masalan, apple, banana, lemon, orange; sinfxona buyumlarida-pen, pencil, ruler, eraser; kiyimlarda-cap, sock, scarf. Mashq besh bosqichda kechadi: audio orqali so‘zlarni tanishtirish va takrorlash; predmetni ushlab topish (10-15 soniya); “It is a …” modeli bilan aytish; Brayl kartochkadan mos so‘zni tanlash; juftlikda “Do you like …?” - “Yes, I do / No, I don’t” dialogi. Shu tariqa so‘z bilan predmet o‘rtasidagi bog‘lanish bevosita hissiy tajriba orqali mustahkamlanadi va ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga xos “verbalizm” ya’ni so‘zni mazmunini anglamay ishlatish hodisasi bartaraf etiladi.



3-rasm. Leksik mashqlardan namuna

Grammatika. “Guess What! 5” da grammatik qoida rangli “Focus!” blokida, dialog va rasmli vaziyat bilan birga beriladi; o‘quvchi qoidani ko‘rish xotirasi orqali eslab qoladi. “Light Up 5” da esa qoida audio-dialog va bo‘sh joyni to‘ldirish mashqi orqali o‘zlashtiriladi: o‘quvchi dialogni tinglaydi, so‘ng tushib qolgan so‘zlarni Brayl daftariga yozadi (4-rasmga qarang):



4-rasm. Grammatik mashqlardan namuna

Konstruktiv mashq grammatik tuzilmani qo‘l bilan his qilish imkonini beradi. “Braille Sentence Builder” mashqida o‘quvchi I, you, he, she, don’t, doesn’t, like, likes so‘zlari yozilgan Brayl kartochkalari bilan ishlaydi: audio ko‘rsatmani eshitib, kartochkalarni to‘g‘ri tartibda joylashtiradi va ovoz chiqarib o‘qiydi. Bunda so‘z tartibi va yordamchi fe’lning qo‘llanishi bir vaqtning o‘zida taktil, kinestetik va kognitiv jarayonlar orqali o‘zlashtiriladi, o‘quvchi esa xatosini o‘zi topib

to‘g‘rilaydi. An’anaviy metodning tarjima elementlaridan ham foydalaniladi, biroq uch cheklov bilan: tarjima faqat yangi tuzilma bilan ishlashda qo‘llanadi, gaplar soni ikki-uchtadan oshmaydi va tarjimadan darhol kommunikativ muloqotga o‘tiladi.

Talaffuz. “Guess What! 5” da talaffuz alohida bo‘lim sifatida ajratilmagan: u Listen and repeat mashqlari ichida, rasmli tayanch bilan birga, imitatsiya yo‘li bilan shakllantiriladi. Ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchi uchun bu yo‘l yetarli emas - mexanik takrorlash fonematik farqlash va urg‘uni ongli boshqarish ko‘nikmasini bermaydi. Shu bois “Light Up 5” da fonetik mashqlar mustaqil blokka ajratildi (5-rasmga qarang):



5-rasm. Talaffuz mashqlaridan namuna

Ritmik-musiqiy mashqda o‘qituvchi olti so‘zni aytadi - computer, camera, tablet, volcano, desert, waterfall; o‘quvchi har bir so‘zni bo‘g‘inlarga ajratadi va urg‘uli bo‘g‘inda ikki marta chapak chaladi, so‘ng juftlikda bir-birining urg‘usini tekshiradi. Vizual transkripsiya o‘rnini ritmik-harakat kanali egallaydi. Minimal juftliklar mashqida o‘qituvchi audio orqali cat yoki bat so‘zini aytadi, o‘quvchi esa Brayl kartochkadan to‘g‘risini tanlaydi - taktil sezgi tinglashdagi farqni tasdiqlash vositasiga aylanadi. Artikulyatsion ishora mashqida tovush harakat bilan bog‘lanadi: [θ] tovushi “til tish orasida” degan taktil ko‘rsatma bilan eslatiladi, o‘quvchi ishorani bajarib think, thin, three so‘zlarini aytadi. Uchala usul ham H.Gardnerning musiqiy-ritmik va kinestetik intellekt haqidagi qarashlariga tayanadi.

O‘qish. “Guess What! 5” da matn ko‘pincha rasm, sxema va yorliqlar bilan bog‘langan holda beriladi: vulqon tuzilishi tasviriga qarab so‘zlarni joylashtirish, so‘ng ta’riflarni moslashtirish talab etiladi-ya’ni tushunish vizual kontekstga bog‘liq. “Light Up 5” da matn qisqartirilmagan Unifikatsiyalashgan Brayl yozuvida beriladi va u audio tayanch bilan birga ishlaydi; qiyosiy matnlar esa mazmunni solishtirish orqali tushunishni tekshiradi (6-rasmga qarang).

Brayl matnining formati alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida unifikatsiyalashgan ingliz Brayl yozuvining qisqartirilmagan shakli eng maqbul hisoblanadi: u o‘quvchining mustaqil o‘qish imkoniyatini kengaytiradi, ingliz tili Brayl savodxonligining shakllanishiga zamin yaratadi va shu sababli O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun tavsiya etiladi (7-rasmga qarang).



6-rasm. O‘qish mashqlaridan namuna



7-rasm. UEB ning qisqartirilmagan shakli (Grade 1)

Yozish va gapirish. “Guess What! 5” dagi Talk time topshirig‘ida o‘quvchi rasmli vaziyatga qarab o‘yinni tasvirlaydi - nutq vizual ssenariyga tayanadi. “Light Up 5” da esa yozuv ko‘nikmasi audio diktant orqali shakllantiriladi: o‘quvchi audio matndan tushib qolgan so‘zlarni ajratib, Brayl yozuvida yoki ekran o‘qigich yordamida klaviaturada yozadi (8-rasmga qarang).



8-rasm. Yozuv va gapirish mashqlaridan namuna

Gapirish ko‘nikmasi uchun vizual ssenariyning o‘rnini og‘zaki ssenariy egallaydi: o‘qituvchi vaziyatni ovoz bilan tasvirlaydi, o‘quvchi esa savol-javob

asosida fikrini bildiradi. Bu yondashuv Universal ta’lim dizaynining “bilimni turli usulda ifodalash” tamoyilini amalda ta’minlaydi.

Natijada mashqlar tizimini moslashtirish besh bosqichli ketma-ketlikka keltirildi: tinglab-tushunish va takrorlash; ma’noni audio tavsif yoki taktil tajriba orqali aniqlash; Brayl yozuvi orqali mustahkamlash; gap darajasida qo‘llash; dialog yoki rolli o‘yinda ishlatish. Ushbu ketma-ketlik “ko‘rishdan multisensor idrokka o‘tish” strategik yo‘nalishining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Mashqlar tizimini loyihalashda Universal ta’lim dizayni tamoyillari amaliy mezon vazifasini o‘tadi. Har bir mashq uchta savolga javob berishi talab etildi: axborot kamida ikki kanalda (audio va taktil) taqdim etilganmi; o‘quvchi bilimini muqobil formatda ovozli yozuv, klaviaturada terish yoki og‘zaki bayon orqal namoyish eta oladimi; topshiriq o‘quvchini o‘z sur’atida ishlashga imkon beradimi. Ushbu mezonlar L.S.Vigotskiyning kompensatsiya nazariyasi bilan uyg‘unlikda qo‘llanildi: ko‘rish tayanchining yo‘qligi tinglab-tushunish xotirasi, taktil sezgirlik va verbal tasavvurning kuchayishi hisobiga qoplanadi, mashq esa aynan shu imkoniyatlarni faollashtiradigan tarzda loyihalanadi[10].

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalarini tahlil qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida Toshkent shahri, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridagi maxsus maktab-internatlarda olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning tahlili keltirilgan. Tadqiqot davomida ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida “Guess What!” darsligining 5-6-sinf darsliklari moslashtirildi va uning asosida “Light Up” nomli darsligi ishlab chiqildi. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirish samaradorligi oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Light Up” moslashtirilgan o‘quv-metodik majmuasi ana’naviy metodlarga qaraganda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi.

Natijalar to‘rt mezon bo‘yicha baholandi. Kognitiv-lingvistik mezon tinglab tushunish va og’zaki nutqdan iborat 10 ballik pre-test va post-test orqali, amaliy-kommunikativ mezon og’zaki suhbat va juftlikdagi topshiriqlar orqali, kompensator mezon Brayl va taktil vositalardan mustaqil foydalanishni kuzatish orqali, motivatsion-psixologik mezon esa tadqiqotchi kundaligi va yakuniy intervyu orqali aniqlandi. Har bir mezon bo‘yicha o‘quvchilar yuqori, o‘rta va past darajaga ajratildi, statistik tahlilda esa to‘rt mezonning o‘rtacha taqsimoti ishlatildi.

Tadqiqot aralash metodologiya asosida, ya’ni miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan holda olib borildi. Tajriba-sinov ishlari ketma-ket, mantiqiy bog‘langan bosqichlarda amalga oshirildi:

a) Tashxis va bashorat qilish bosqichi: Ushbu bosqichda dastlab maxsus maktab-internatlarning faoliyati, o‘quv jarayoni, moddiy-texnik bazasi, o‘quv-metodik ta’minoti atroflicha o‘rganildi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbatlar, intervyular o‘tkazilib, ularning ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish borasidagi fikrlari, ehtiyojlari, mavjud muammolar aniqlandi. Dars jarayonlari bevosita kuzatilib,

[10] Rose D.H., Meyer A. Teaching Every Student in the Digital Age: UDL. – Alexandria, VA: ASCD, 2002.

oʻquvchilarning faolligi, darsga boʻlgan qiziqishi, qoʻllanilayotgan metodlarning samaradorligi baholandi. Ushbu bosqichda toʻplangan ma’lumotlar tajriba-sinov ishlarini toʻgʻri rejalashtirish va tashkil etish uchun asos boʻldi.

b) Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi: Ushbu bosqichning asosiy vazifasi “Guess What!” oʻquv-metodik majmuasini koʻzi ojiz va zaif koʻruvchi oʻquvchilar uchun moslashtirish va uning asosida “Light Up” nomli oʻquv-metodik majmuasini yaratishdan iborat boʻldi.

c) Amaliy bosqich: Moslashtirish jarayonida matnlar Brayl yozuviga oʻtkazildi, audio materiallar yaratildi, rasmlar relyefli shaklda tayyorlandi, topshiriqlar oʻquvchilarning idrok etish xususiyatlariga mos ravishda idrok kanaliga moslashtirildi. Tayyorlangan materiallar asosida “Light Up” oʻquv dasturi ishlab chiqildi va tajriba-sinov guruhlarida joriy etildi.

d) Umumlashtiruvchi bosqich: Ushbu bosqichda tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi, nazorat va tajriba-sinov guruhlarining koʻrsatkichlari solishtirildi, “Light Up” darsligi va moslashtirilgan kitobning samaradorligi baholandi, xulosalar chiqarildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari 2024-2025 oʻquv yilida Toshkent shahri, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridagi 3 ta maxsus maktab-internatning jami 14 ta sinfida (8 ta tajriba, 6 ta nazorat) olib borildi; tajriba guruhida 71 nafar, nazorat guruhida 57 nafar oʻquvchi qatnashdi. Guruhlar mavjud sinflar asosida tuzildi: Toshkent shahridagi maktab-internatda 5- va 6-sinflarning uchtadan parallel sinfi boʻlgani uchun ulardan ikkitasi tajriba, bittasi nazorat guruhiga biriktirildi, boshqa hududlarda esa har bir parallelda bittadan tajriba va nazorat sinfi olindi. Tajriba-sinov guruhlarida darslar “Light Up” darsligi asosida, moslashtirilgan kitobdan foydalangan holda, interfaol metodlar yordamida tashkil etildi. Nazorat guruhlarida esa darslar an’anaviy tarzda olib borildi.

